

Muloqot Jarayonida Xotiraning Ahamiyati Xususida

*Mamajonov Muhammad Yusubjonovich*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotira va muloqotning o'zaro aloqasi, xotiraning muloqot jarayonidagi ahamiyati, xotiraning yaxshi ishlamasligi muloqotning samarali kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikr yutilgan.

Kalit so'zlar: xotira, muloqot, tasavvur, lisoniy birlik, idrok, diqqat, hissiyot.

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir.

Muloqot jarayonini xotira ishtirokisiz tasavvur etish mumkin emas. Muloqot paytida qanday lisoniy birliklardan foydalanishimizdan tortib, muloqot ishtirokchilariga qanday javob qaytarishgacha – barchasi xotiraning funksional xususiyatlari bilan bog'liq.

Ma'lumki, xorijiy tillarni o'zlashtirishda so'zlarni yodlash, esda saqlab qolish va qayta muloqotda qo'llay olish muhim sanaladi. Xuddi shunday jarayon nafaqat o'rganilayotgan boshqa til bilan, balki ona tili bilan ham sodir bo'ladi. Chaqaloq dunyoni anglar ekan, asta-sekin so'zlarni o'rgana boradi, keyin esa bu so'zlarni o'zi ishlab chiqarishni odat qiladi. Ishlab chiqarish deganda, so'zlarni talaffuz qilish, kerak joyda qo'llay olish nazarda tutiladi. Bularning barchasi xotira bilan bog'liq holda amalga oshadi. Inson ulg'aygani sari so'z boyligi ham kengayib boradi, lisoniy vositalarning uslubiy, pragmatik xususiyatlarini farqlay oladigan darajaga erishadi.

Xotira faqatgina so'zlarni, lisoniy qoliplarni esda saqlab qolish mexanizmigina emas. Muloqotda kerakli so'zni qo'llay olishda so'zlarni shunchaki miyadagi "ombor"dan tortib olishning o'zi kamlik qiladi. So'zlovchi nutq vaziyatiga asoslanib, baholash jarayonini amalga oshirgandan keyingina kerakli lisoniy vositani tanlaydi va qo'llaydi. Bu esa tafakkur, idrok, diqqat va boshqa hodisalarning ham xotira bilan birgalikda ishlashini talab qiladi. Ko'p hollarda bu jarayon avtomatik tarzda, juda tez sodir bo'lgani uchun ham oddiy inson o'z ongida bunday murakkab jarayonlar kechayotganini tushuna olmaydi.

Xotira va muloqotning o'zaro aloqasi masalasi psixologlar va tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, K.King muloqotda xotiraning funksional modeli bo'yicha, D.Yunk va boshqalar muloqot ishtirokchilarining xotirasi xususiyatlari bo'yicha, A.Vrey muloqotda xotiraning roli bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.

Ko'p hollarda tilshunoslar xotiraning muloqotga ta'sirini o'rganganlar. Biroq psixologlar tomonidan bu jarayonning aksi, ya'ni muloqotning xotiraga ta'siri bo'yicha ham tajribalar o'tkazilgan. Xususan, A.Todorov tomonidan o'tkazilgan qiziqarli tajriba natijasida ma'lum bo'ldiki, muloqot xotiramizga o'z ta'sirini o'tkazadi. Olim xotira mexanizmlarini muloqot vaziyatiga bog'liq holda o'rganib chiqqan. Tajriba davomida qirq sakkiz nafar talabaga Donald ismli talaba haqida esse o'qitilgan. Bu esseda Donald haqida yettita ma'lumot mavjud bo'lgan. Har bir berilgan ma'lumot Donaldni ijobiy yoki salbiy baholamagan holda, mavhum tarzda keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotni o'qigan talaba uni o'z qarashidan kelib chiqib ijobiy xislat yoki salbiy xususiyat sifatida baholashi mumkin bo'lgan. Esse so'ngida esa talabalar o'qiganlaridan kelib chiqib, Donaldni yetti balli shkala asosida ijobiy yoki salbiy baholashlari talab qilingan. Bunda qatnashuvchilar o'qiganlaridan xotirada saqlanib qolgan ma'lumotlarga asoslanib javob berishlari so'ralgan. Masalan, bir ma'lumotni o'qigach, talabalar Donaldning o'zboshimcha yoki mustaqil ekanini tanlashi kerak edi. Tajriba o'tkaziladigan kun

¹ FarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



qatnashuvchilar boshqa bir talaba bilan tanishtirilgan. Bu talaba qatnashuvchilar bilan muloqotga kirishib, o'tgan yili xuddi shu tajribada qatnashganini, esseda keltirilgan Donald o'zining guruhdoshi ekanini aytadi. Qatnashuvchilar to'rt guruhga ajratilgan, o'tgan yilgi talaba birinchi guruhga kirib, Donaldni yoqtirganini aytgan, ikkinchi guruhga kirib Donaldni uncha yoqtirmaganini aytgan. Uchinchi guruhga kirib essening retsiyenti ma'lumotlar kim haqida ketayotganini bilmasligi, agar qatnashuvchilar Donaldni ijobiy baholashsa, retsiyent uni tanib olishi osonroq bo'lishi aytilgan. To'rtinchi guruhga esa uchinchining aksi aytilgan, ya'ni qatnashuvchilar negativ baholashsa, retsiyent uni tanishi oson bo'lishi ma'lum qilingan. Tajriba natijalariga ko'ra, o'tgan yilgi talaba Donaldni yoqtirishini aytgan guruh qatnashchilari ko'proq ijobiy, Donaldni yoqtirmasligini aytgan guruh qatnashchilari ko'proq salbiy javoblarni belgilashgan. Tajriba natijalariga ko'ra A.Todorov muloqot akti xotiraga ta'sir o'tkazadi, degan xulosaga kelgan. Olimning fikricha, muloqot vaziyatining xotiraga ta'sirini o'zgartirib bo'lmaydi, muloqot to'g'ridan-to'g'ri xotiraga ta'sir ko'rsatadi.

Xotiraning sustligi yoki to'liq va yaxshi ishlamasligi muloqotning samarasiz kechishiga olib keladi. Ayrim hollarda esa xotirasi yo'qolgan inson umuman hech kim bilan muloqot qila olmay qoladi. Shu sababdan ham xotira va uning inson muloqotiga ta'siri bugungi psixologvistikaning dolzarb ahamiyatga ega mavzularidan bo'lib qolmoqda.

Zulfiya Qurolboy qizining "Kuygan shahar" hikoyasida bosh qahramon – kampir o'z xotirasini yo'qotib qo'ygan ayol bo'lib, o'zini bir necha yillar oldingi holatida tasavvur qiladi. Kampir yoshligida bozorda ishlagan, yosh bolalarini uyda yolg'iz tashlab ketardi. Bir kuni ayol bozordaligida uning uyi yonib ketib, birgina o'g'li tirik qoladi. Bundan ruhiy zarba olgan ayol xotirasini yo'qotadi, natijada oradan yillar o'tib, o'g'li uylanib, nabiralari bor bo'lsa ham, ayol o'zini o'sha – uyi yongan paytdagi vaqtda yashayapman, deb xayol qiladi:

Yo'q, u telba emasdi. Uning xotirasi inqirozga uchragan, necha yillardan buyon ko'rlik dunyosidan ham battarroq bir zulmat ichida, olamdagi o'zgarishlardan bexabar, na kechaning, na bugunning farqiga bormasdan, yolg'iz, hattoki yolg'izdan yolg'iz, hududsiz zulmat ichida yashardi. Ong-shuurida hayotining faqat eng og'ir damlari – yigirma yil muqaddam, bozorda choy sotib tirikchilik o'tkazgan davri – xuddi halokatga uchragan vaqtning bir parchasiday qotib qolgan; yoshi bir yerga borgan, ro'zg'orning barcha tashvishlaridan qutilgan bo'lsa-da, hamon ilgariday, ya'ni oilaning butun tashvishlari o'z gardanida bo'lgan vaqtlardagiday kuyib-pishib yurar, holdan toyib yotib qolguncha bozordan beri kelmas, lekin hech qachon birovning moliga ko'z olaytirmas, o'zi o'qimagan va ongiga sig'dira olmagan sonmingta dunyoviy qonunlardan faqat bittasini – "Halol yasha", deganini juda qattiq ushlab olgan, xuddi bitta to'g'ri chiziq bo'ylab tinimsiz borib-kelayotganday yashar, kelajak esa... nazarida juda uzoqda, hech yetib bo'lmaydiganday tuyulardi...

Kampir odamlarni ham o'zlarining ismlari bilan chaqirmaydi, boshqalar bilan chalkashtirib yuboradi; bu esa kampir bilan hech kimning gaplashgisi kelmasligiga, uni masxara qilishlariga sabab bo'ladi:

Biroq kampir qorovul bilan so'rashmasdan o'tmaydi.

- *Yaxshi yuribsanmi, Boltavoy? Bola-chaqang omonmi?*
- *Ha, omon, omon. Omon bo'lmay nima... – yoqtirmayroq javob berdi qorovul. – Faqat siz qachon mening ismim Boltavoy emasligiga ahamiyat berarkansiz?*
- *Mening uycham ham omonmi, Boltavoy?*
- *Omon, omon. Ana, qo'qqayib turibdi. Eshik-derazalari berkitilgan bo'lsa, kim ham teginardi?*
- *Ha, yaxshi...*

Aslida qorovulning ismi Boltavoy emas, lekin kampir uni shunday chaqiradi, bu esa qorovulda norozilik tug'diradi.

Shu o'rinda xotirasi yo'qolgan insonlarga munosabat bildirishda subyektiv omillarni ham inobatga olish zarur. Asarda kampirga achingan, uning xotirasi yo'qolganini bilgan boshqa ayrim qahramonlar esa kampirdan xafa bo'lmay, unga achinib muloqotga kirishadilar:



- *Roziyaxon, mana qahvangiz, – kampir qaynoq hovur ko‘tarilayotgan chashkani qirq besh-ellik yoshlardagi ayolga uzatdi. – Kecha bundan keyin sal quyuqroq damlang, degandingiz, mana, aytganingizday damladim.*

Kartoshka-piyoz qoplarining ustida o‘tirgan Roziyaxon deganlari – uning ismi aslida Salimaxon, lekin kampir uni har doim Roziyaxon deb ataydi, u to‘ladan kelgan, bilaklari lorsillagan, oytovoqday yuzida ko‘zlari bir chiziqday bilinib-bilinmay turgan, shartakiroq ayol, – yoyilib iljayancha kampirning qo‘lidan chashkani olarkan:

- *O‘zinning aqlli opoqimdan aylanay! – dedi go‘yo qarshisida yetmish yashar kampir emas, yetti yashar bola turganday erkalab. – Oh, oh, hidini qarang, hidini... Ertaga yana shunaqasidan bo‘lsin, xo‘pmi?*
- *Xo‘p.*

Salima-Roziya choychaqa uzatdi.

- *Endi boraqoling. Siz bilan valaqlashishga vaqtim yo‘q.*

Aslida kampirning ismlarni adashtirib gapirishi uning o‘tmishda yashayotganidan. Kampir o‘zini yigirma yil avvalgi holdaman, deb o‘ylaydi. Shu sababdan ham o‘sha davrda bor bo‘lgan, kampir bilan birga yashagan, birga ishlagan insonlarning ismlari bilan chaqiradi. Bundan bexabar insonlar esa kampir bilan tortishishga urinib, unga haqiqatni singdirmoqchi bo‘lishadi:

- *Nimalar deb valdirayapsiz? Narimon boyvachcha deganlari kim o‘zi? Bozorkom Sodiq boyvachcha-ku! Siz qaysi zamonda yashayotganingizni bilasizmi o‘zi?! Janjalkashning shu uch og‘iz gapi yetarli, kampir birdan quturib ketadi:*
- *Hoy, manjalaqi, nima, meni esdan og‘ib qolgan deyapsanmi?! Bozorning xo‘jayini Narimon boyvachcha ekanligini bilmasang, yur, o‘zim ko‘rsatib qo‘yaman!*

Kampir aravachasini uloqtirib yuboradi-yu, janjalkash tomon xezlanadi.

Bundan ko‘rinadiku, xotira muloqot uchun zarur psixik jarayonlardan biri sanaladi. Xotiraning yaxshi ishlamasligi muloqotning samarali kechishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xotira hissiyotlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi va muloqotga o‘zining ta‘sirini o‘tkazadi.

ADABIYOTLAR:

1. Xaydarov F., Xalilova N. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009. – B.169.
2. King, Corwin, P.A. Functional Model of Memory in Communication//https://archive.org/details/ERIC_ED093005/mode/2up
3. Yunyk D., Yunyk I., Yunyk T., Burnazova V. Memory of Subjects of Communication: The Structural and Functional Components//researchgate.net
4. Wray A. The Role of Memory in Communication//doi.org/10.1093/oso/9780190917807.003.0003
5. Todorov A. Communication effects and on memory and judgment//European Journal of Social Psychology. 2002. #32. – P.531-546.

